

O‘O‘T:633.31/37;631.84

**TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI EKISH USULIDA YETISHTIRISHDA TEMIR  
KUPOROSI SUSPENZIYASINI QO‘LLASHNING DONNING SIFAT  
KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI**

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

**Begimqulova Dilnoza Meyliyevna**

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada kuzgi bug‘doyga temir kuporasi suspenziyasi bilan batergdan oziqlantirish orqali kuzgi bug‘doyning sifat kursatgichi yaxshilanishi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Kuzgi bug‘doy, nav, bargdan oziqlantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish, oziqlantirish.*

**АННОТАЦИЯ**

*В статье описано улучшение показателей качества озимой пшеницы путем внекорневой подкормки озимой пшеницы суспензией оксида железа.*

***Ключевые слова:** озимая пшеница, сорт, внекорневая подкормка, прямой посев, подкормка.*

**ABSTRACT**

*This article describes the improvement of winter wheat quality indicator by foliar feeding of winter wheat with iron oxide suspension.*

***Keywords:** Winter wheat, variety, foliar feeding, direct sowing, feeding*

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda bug‘doy donini yetishtirish bo‘yicha Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSh va Kanada davlatlarda don yetishtirish borasida resurstejamkor, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ustuvor yo‘nalishlarda

tadqiqotlar olib borish natijasida maqbul agrotadbirlar ishlab chiqilib ishlab chiqarishga joriy etilgan. Shu bois, bu davlatlar don yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinni egallashga erishgan. Bu borada, mintaqalarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, bug'doy doni yetishtirish bo'yicha iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan agrotadbirlari ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 yanvardagi 45-son «Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida xorijiy va mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik texnikasi va texnika vositalarining yangi zamonaviy turlaridan respublika qishloq xo'jaligida samarali foydalanishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida «...yerga ishlov berish va ekinlarni parvarishlashning ilg'or innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish hisobiga agrotexnik tadbirlar sonini kamaytirish»<sup>1</sup> bo'yicha vazifalar belgilangan. Shu sababli, qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda zamonaviy ekish moslamalaridan foydalanib iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan agrotadbirlarni ishlab chiqish respublikamiz uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Kuzgi yumshoq bug'doyning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsada to'g'ridan-to'g'ri ekish usulida bargdan oziqlantirish samarali bo'lgan agrotadbirlarini ishlab chiqish va joriy etishdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Ya.Omonov hududidagi Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba uchaskasi och

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги ПФ-5742-сон «Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Фармони

tusli boʻz tuproq sharoitlari kuzgi yumshoq bugʻdoyning “**Shukrona**” navi, temir birikmalarini tutgan preparatlar tanlangan.

**Olib borilgan agrotadbirlar:** Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba maydonida kuzgi yumshoq bugʻdoyning “**Shukrona**” navini toʻgʻridan-toʻgʻri ekish usulida ekish va oʻsuv davrida temir tutuvchi preparatlar bilan bargdan oziqlantirish tadbirlari olib borildi.

**Natijalar:**Kuzgi yumshoq bugʻdoyning Shukrona navini toʻgʻridan-toʻgʻri ekish usulida yetishtirishda nazorat  $N_0P_0K_0$  oʻgʻitsiz variantlaridan olingan namunalardan Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining “Oʻsimliklar fizalogiyasi va biokimyosi” laboratoriyasida tajribalari olib borilganda biometrik oʻlchov natijalarga koʻra, 1000 dona don vazni 32,4 g ni tashkil etishi aniqlandi.

Tajriba tizimidagi maʼdan oʻgʻitlar  $N_0P_0K_0$  qoʻllanilmagan faqatgina temir moddasi tutgan stimulyatorlar bilan bargdan oziqlantirilgan variantlarda oʻrta hisobda “Shukrona” navining 1000 dona don vazni 39,0 g ni tashkil etishi aniqlandi.

Dala tajribasidagi  $N_{180}P_{90}K_{60}$  kg/ga meʼyorida maʼdan oʻgʻitlar va temir moddasi tupgan stimulyatorlar bilan oziqlantirilgan nazorat variantda 1000 dona don vazni 40,1 g ni tashkil etishi aniqlandi.

$N_{180}P_{90}K_{60}$ +Temir kuporosi 47% bilan oziqlantirish ishlari olib borilgan variantlarda 1000 dona don vazni 41,9 g ni tashkil etishi aniqlandi.

### **1-jadval**

**Kuzgi yumshoq bugʻdoyni toʻgʻridan-toʻgʻri ekish usulida yetishtirishda temir kuporosi suspenziyasini qoʻllashning donning sifat koʻrsatkichlariga taʼsiri**

*(JDITI ning Qarshi tajriba maydoni. 2022-2023 y.y)*

Oziqlantrish usullari	Variantlar	Don naturasi, g/l	Don tarkibidagi oqsil miqdori, %	Don tarkibidagi kleykovina miqdori, %	Donning IDK ko'rsatkichi.	Donning shishasimonlik darajasi, %	1000 dona don vazni, g/r	Donning namligi, %
N <sub>0</sub> P <sub>0</sub> K <sub>0</sub> + Bargdan oziqlantirish (Temir kuporosi 47%)	Nazorat	760,2	14,2	26,0	100,5	66,0	32,4	9.0
	2	774,9	14,7	26,4	100,3	74,8	34,2	9.3
	3	773,3	14,9	28,4	103,8	75,0	34,9	8.6
	4	771,3	14,8	28,6	94,6	69,8	34,4	8.9
	5	780,4	14,7	27,1	91,7	77,8	33,4	8.4
	6	774,9	14,9	28,9	102,3	74,4	35,4	8.6
	7	772,4	14,8	27,4	101,8	65,4	38,7	8.7
	8	776,5	14,1	29,1	97,4	74,3	37,3	8.8
	9	779,4	14,3	28,2	91,4	72,1	38,4	9.1
	10	778,1	14,7	28,2	93,3	67,9	39,0	9.2
N <sub>180</sub> P <sub>90</sub> K <sub>60</sub> +Bargdan oziqlantirish (Temir kuporosi 47%)	Nazorat	762,5	14,3	26,9	96,3	68,2	40,1	9.3
	2	785,8	14,6	28,5	86,8	73,5	41,7	9.4
	3	779,3	14,3	28,8	87,6	69,4	40,5	9.4
	4	780,5	14,5	28,4	84,0	78,1	41,7	8.7
	5	779,6	14,7	27,8	85,7	78,1	41,3	8.9
	6	785,6	15,6	28,4	86,3	74,3	42,3	8.8
	7	788,8	14,8	28,9	82,9	68,8	43,1	8.0
	8	783,1	14,4	28,7	85,7	74,6	44,2	8.6
	9	766,7	15,2	27,4	86,3	70,8	42,1	8.6
	10	770,3	15,0	28,9	88,5	71,8	41,9	9.2

Shuningdek yumshoq bug'doyning Shukrona navini to'g'ridan-to'g'ri yetishtirishda oqsil miqdori eng yuqori ko'rsatkich N<sub>180</sub>P<sub>90</sub>K<sub>60</sub>+Temir kuporosi 47% bilan oziqlantirilgan variantlarda 15,6 %, eng past ko'rsatkich nazorat N<sub>0</sub>P<sub>0</sub>K<sub>0</sub> o'g'itsiz variantlarida 14,2% Kleykovina miqdori esa N<sub>180</sub>P<sub>90</sub>K<sub>60</sub>+Temir kuporosi 47% bilan oziqlantirilgan variantlarida eng yuqori ko'rsatkich 28,9 %, eng past ko'rsatkich nazorat N<sub>0</sub>P<sub>0</sub>K<sub>0</sub> o'g'itsiz variantlarida 26,0 %, IDK ko'rsatkichi esa

$N_{180}P_{90}K_{60}$ +Temir kuporosi 47% bilan oziqlantirilgan variantlarda eng yuqori ko'rsatkich 84,0 nazorat  $N_0P_0K_0$  o'g'itsiz variantlarida esa 103,8 namlik miqdori esa o'rtacha olib kelingan namunalarda 8-9 % ligi aniqlandi(1-jadvalga qarang).

Xulosa qiladigan bo'lsak, olib borilgan tadqiqotlar natijasida kuzgi yumshoq bug'doyga agrotadbirlarning samarali ta'siri natijasida ma'dan o'g'itlar qo'lash bilan birga temir tarkibli o'g'itlar bilan bargdan oziqlantirish orqali varyantlar kesimida o'g'it me'yorlarini oshirib borish natijasida kuzgi bug'doyning don sifat ko'rsatkichlarini ko'payishiga ershilgan. Bunda, birinchi navbatda ma'dan o'g'itlarning ta'siri bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan o'simlikni temir kuporosi bilan bargidan oziqlantirish natijasida donning sifatining oshishiga sababchi bo'lgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni. [Lex.uz](http://Lex.uz)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 yanvardagi 45-son «Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. [Lex.uz](http://Lex.uz)

3. Atabaeva X. N., Xudayqulov J. B. "O'simlikshunoslik", "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, Toshkent. -2018.

4. Bug'doyning rivojlanish istiqollari "Voris- nashriyoti" Toshkent. -2020.

<https://www.fao.org/news/story/en/item/1412745/icode/>